



ISHSIZLIKNING JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TA'SIRI

Sharipova Dildora Mansur qizi

Berdoq nomidagi Qoraqalpog

Davlat universiteti tarix fakulteti

bakalavr sotsiologiya yo'nalishi

talabasi 3- kurs.

E-mail; sharipova_dildora005@gmail.com

Annotatsia: Ushbu maqolada ishsizlikning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri, uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini hamda mehnat bozoriga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi. Ishsizlik darajasining oshishi aholi daromadlari kamayishi, turmush darajasining pasayishi va ijtimoiy muammolarning kuchayishiga olib kelishi yoritib beriladi. Shuningdek, bandlikni ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish va mehnat bozorini rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish yo'llari ko'rib chiqiladi. Maqolada ishsizlikni kamaytirish jamiyat barqarorligi va farovonligini oshirishning muhim omili ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Ishsizlik, bandlik, mehnat bozori, mavsumiy ishsizlik, doimiy ishsizlik, xalqaro mehnat taqsimoti, unumdorlik.

Jahon mamlakatlari ishsizlik tushunchasini Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT), Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti talablariga ko'ra ishlab chiqishadi. Xalqaro tashkilotlarning bergan ta'rifiga binoan «ishsiz shaxslar» deganda — ishga ega bo'lmagan, ishlashga tayyor va ish izlayotgan fuqarolar tushuniladi. Mana shu asosiy shartlarga rioya qilgan holda, turli mamlakatlarda fuqaroni ishsiz shaxs deb e'tirof etish uchun qo'shimcha shartlar talab qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi Qonuniga binoan ishsiz shaxs deb, mehnatga qobiliyatli (o'n olti yoshdan boshlab to' pensiya bilan ta'minlanish huquqini olgunga qadar), ishga va ish haqiga (mehnat daromadiga) ega bo'lmagan, ish qidiruvchi shaxs sifatida mahalliy mehnat organida ro'yxatga olingan, mehnat qilishga, kasbga tayyorlash va qayta tayyorlashdan o'tishga, malakasini oshirishga tayyor mehnatga qobiliyatli shaxslar e'tirof etiladi.

Ishsiz shaxs deb e'tirof etish uchun quyidagi to'rt shart mavjud bo'lishi lozim.

Birinchi shart — fuqaro mehnatga qobiliyatli bo'lishi va amaldagi qonun hujjatlariga binoan pensiya ta'minoti huquqiga ega bo'lmash kerak. Huquqiy jihatdan mehnat qilish qobiliyatining quyi darajasi Mehnat kodeksining



20-moddasiga muvofiq 16 yosh deb belgilangan.⁹

Ikkinchi shart — fuqaro ishga va ish haqiga (mehnat daromadiga) ega bo‘lmasligi lozim.

Uchinchi shart — fuqaro ishlashga tayyor bo‘lishi lozim. Fuqaroning ishlashga tayyor ekanligini, uning mahalliy mehnat organiga ish qidirib rasmiy murojaat qilishi, belgilangan muddatlarda mehnat organida qaytadan ro‘yxatdan o‘tib turishi va mehnat organlari tomonidan taklif qilingan maqbul ishni qabul qilish holatlari tasdiqlaydi.

To‘rtinchi shart — fuqaro barcha tegishli hujjatlarni taqdim qilgan holda mahalliy mehnat organida ish qidiruvchi shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tishi lozim.

Ishsizlik va u bilan bog‘liq muammolar mehnat bozoridagi ijtimoiy-iqtisodiy mehnat munosabatlarining asosiy mazmunini tashkil qiladi. Ishsizlik muammosini o‘rganishdan asosiy maqsad aholining ish bilan bandligini yaxshilash orqali mamlakat ishlab chiqarishini kengaytirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga aloqador tadbirlar ishlab chiqishdan iborat. Jamiyatdagi ishsizlik darajasini pasaytirish uchun qo‘shimcha ishchi o‘rinlarini yaratish, ularni ishga tushirish aholining tabiiy o‘sishidan orqada qolmasligi kerak.

Ishsizlikning umumiy iqtisodiy xarakteri mehnat bozorining o‘zi, mehnatga talab va uning taklifi o‘rtasidagi mutanosiblik ishsizlikni emas, ish bilan bandlikni shakllantirishidan ham kelib chiqadi. Shuning uchun ham aholi turmush darajasini yaxshilash uchun ish bilan bandlikni ta‘minlash yo‘llarini ko‘rib chiqish lozim.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida respublikamizda mehnat bozori, mehnatni boshqarish institutlarini va iqtisodiy-huquqiy mexanizmlarini yaratish talab etiladi. Bozor iqtisodiyoti erkin ishlab chiqaruvchilarning, iste‘molchilarning gorizontal munosabatlariga asoslanar ekan, ishsizlik, qashshoqlik, ijtimoiy-siyosiy vaziyatning barqarorligi kabi salbiy hodisalarning bo‘lishi mumkinligini nazarda tutish zarur. Umuman makroiqtisodiyotni muttasil o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash uchun respublika aholisining o‘sish sur‘atlarini tartibga solish lozim. Aholining o‘sishi esa ish kuchining manbaidir.¹⁰

Mehnat bozorida ham talab va taklif qonunlari amal qiladi. Buning mohiyatini anglashdan oldin ish kuchi va ish bilan bandlik konsepsiyasini bilish lozim. Ish bilan bandlikning klassik nazariyasi hozirgi mehnat bozoridagi raqobat sharoitida “talab va taklif”ning umumbashariy funksiyasidan boshlanadi. Hozirgi raqobat sharoitida ishbilarmonlar ish kuchidan shunday

⁹ Maxmudov N., Hakimov N. Makroiqtisodiy tahlil. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2019. – 181 bet.

¹⁰ Edward Shapiro. Macroeconomic Analysis. Fifth edition. – Oxford, 2015.



miqdorda foydalanadilarki, bunda mehnatning yuqori mahsuli real ish haqi bilan teng bo'lishi yoki ish haqi hajmining puldagi ifodasi mehnatning yuqori mahsuli qiymatiga teng bo'lishi kerak. Agar real ish haqi miqdori oshsa, ishbilarmon ish kuchiga bo'lgan talabni qisqartiradi; agar real ish haqi kamaysa, ish kuchiga bo'lgan talab ortadi. Bu yerda ishbilarmon shu yo'l bilan daromadning kamayishini muvozanatlashtiradi.

Ishlab chiqarishning mehnat kabi resursidan to'liq va oqilona foydalanish va shu munosabat bilan ommaviy ishsizlikka yo'l qo'ymaslik, ishsizlikni kamaytirish borasida qizg'in faoliyat olib borish davlatning nihoyatda muhim vazifalaridir. Ushbu muammoni hal etishda ikki asosiy bosh yo'nalishga ajratish mumkin.

Birinchisini sub'ektiv yo'nalish deb nomlash mumkin. U insonni mehnat faoliyatiga shunday tayyorlashni tashkil etishdan iborat bo'ladiki, bunda inson ishlab chiqarish shart-sharoitlari, texnik baza o'zgarishlari munosabati bilan muvaffaqiyatli ravishda mehnat faoliyati olib borish uchun yetarli darajada tez qayta tayyorgarlikdan o'tib, yangi bilim, qobiliyat va ko'nikmalar orttira oladi.¹¹

Xo'jalik yuritishning yangi sharoitlarida insonning ishga joylashuvi uning shaxsiy ishiga aylanib qoldi. Endi davlat unga shunday masalalarni o'zi hal etishida yordam beradi, xolos. Buning ustiga, ishga joylashuv ishsizlik mavjudligi sharoitida ro'y beradi, bu esa ishsizlik muammosini hal qilishni anchagina qiyinlashtiradi. Bularning barchasi O'zbekiston fuqarolari uchun yangidir. Ushbu sharoitda ular yaxshi tayyorlangan bo'lishlari, mehnat bozorida o'zlarini qanday tutishni, o'zlarining qanday huquqlari, yangi sharoitlarda qanday vazifalari borligini, ishsiz qolgan kishi o'zini qanday tutishi lozimligini, ishga qay yo'sinda yollanish, qay tarzda ish izlash kerakligi va hokazolarni bilishlari zarur bo'lib qolmoqda. Aholiga shu tarzda ta'lim berish ish bilan bandlikka ko'maklashish markazining bosh vazifasi bo'lib qolishi kerak. Bu hozirgi paytda milliy iqtisodiyotda ish bilan band bo'lganlarning taxminan 2/3 qismi xodimlar sifatida qayta qurish davridan oldingi paytlarda shakllanganligi bilan ahamiyatlidir.

Davlatning iqtisodiyotni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi faoliyati aholining ish bilan bandligini ta'minlash sohasidagi muhim yo'nalishdir. Davlat iste'mol va investitsiya tusidagi tovar va xizmatlarga bo'ladigan talabni rag'batlantirib, shu asosda mulkchilikning barcha shaklidagi korxonalarda yangi ish o'rinlari yaratib borishi, iqtisodiyotning xususiy tarmog'ini va ushbu tarmoqda yangi ish o'rinlari ochilishini rag'batlantirishi

¹¹ Maxmudov N.M., Asqarova M.T., Umarov I.Yu. Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash. Darslik. – T.: "Fan va texnologiyalar", 2014. – 338 bet.



lozim. Lekin davlat faoliyatining shu jihatini takomillashtirish talab etiladi.¹²

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida, umuman, aholini ijtimoiy himoyalashning muhim sharti sifatida ish bilan bandlik va ishsizlikdan himoyalash siyosati dunyodagi ko'pgina rivojlangan mamlakatlarning boy tajribasiga asoslangandir. Ammo bu tajribalarning ko'pchiligi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining tub mohiyatiga tatbiqan yetarlicha to'g'ri kelavermaydi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ko'rsatishicha, hukumat ishsizlarning ijtimoiy himoyasini ta'minlagandan keyingina boshqa ishlarga kirishishi – dastlab ish bilan bandlikni barqarorlashtirish (saqlash)ga, so'ngra uning o'sishini rag'batlantirishga kirishishi mumkin. Bunda ish bilan bandlikning o'sishini rag'batlantirish uch yo'nalishda amalga oshiriladi:

- tadbirkorlar bilan ishlash, masalan, yangi ish joylari yaratilganda soliq imtiyozlarini berish, ishsizlarning ish izlashlarini faollashtirish;
- ishchi kuchi taklifini rag'batlantirish;
- yollanma ishchilar sinfini mehnat bozoridan chiqarish, xususiyl tadbirkorlik bilan o'z-o'zini ish bilan band qilishni rag'batlantirish (kasanachilik, uy sharoitida ochilgan mayda sexlar va boshqa).

Buning uchun Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrda 806-son qaroriga asosan o'zini o'zi band qilish to'g'risida nizom ishlab chiqildi.

Mehnat bozorida yoshlarga qaratilayotgan alohida e'tibor bois, jami aholiga nisbatan ish bilan ta'minlash ulushi yuqori bo'lmoqda. Ularga jamiyatda munosib o'rin topishiga ko'maklashish va tashabbus ko'rsatib mehnat qilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yildi. Yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanayotgan yoshlar esa, barcha sohalarda o'z qobiliyatini namoyon etmoqda. Binobarin, mamlakat taqdiri uchun mas'uliyatni chuqur his etadigan, mustaqil va yangicha fikrlaydigan yosh kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish vazifasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.¹³

Mehnat bozoridagi vaziyatni xolisona baholash, mehnatga layoqatli aholi sonini xalqaro standartlarga muvofiq aniqlash hamda mehnat resurslari balansini ishlab chiqish tartibini shakllantirishda Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari hamda Mehnat vazirligining ish bilan ta'minlash masalalarini o'rganish natijalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Respublikamizda vaqtincha ishsizlik mavjudligi sabablaridan biri — ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi nomutanosiblikdir. Ya'ni, ish

¹² Xodiev B.Yu., Shodiev T.Sh., Berkinov B.B. Ekonometrika. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2018. – 178 bet.

¹³ Lex.uz



bilan band bo'lmagan aholining katta qismi malakasiz xodimlar va mehnat bozoriga birinchi marta chiqayotgan yoshlarni tashkil etmoqda. Aksincha, iqtisodiyot tarmoqlarida yuqori malakaga va ish tajribasiga ega bo'lgan kadrlarga talab ortib bormoqda.

O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlash, ularga munosib hayot va mehnat sharoitlari yaratib berishga qaratilgan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning izchil amalga oshirilishi natijasida iqtisodiyotning turli jabhalarida mehnat qilayotganlar soni ortib bormoqda, mavjud mehnat salohiyatidan samarali foydalanish ko'rsatkichi tobora yaxshilanmoqda. O'zbekiston Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda mamlakatda ishsizlik darajasi 8,1 foizgacha pasaygan. 2023-yil boshiga kelib O'zbekistonda 15 millionga yaqin mehnatga layoqatli aholidan 13,7 million kishi ish bilan ta'minlangan. 2023-yilning birinchi yarmida ishsizlik darajasi 8,1 foizga kamaydi. 2024-yilda yangi ish o'rinlari tashkil etish, yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini kengaytirish va yangi moliyaviy vositalarni joriy etish hisobiga bu ko'rsatkich yanada 7,5–8 foizga kamayishi kutilmoqda. Bu ma'lumotlar O'zbekiston Markaziy banki tomonidan tayyorlangan Mehnat bozori tadqiqotida keltirilgan.

Mehnat bozori sharhi tashqi mehnat migratsiyasi masalasini ham qamrab oladi. 2018–2023-yillarda mehnat muhojirlari tomonidan yuborilgan pul o'tkazmalari mamlakat aholisi umumiy daromadlarining qariyb 16 foizini tashkil etdi. Mehnat migratsiyasining asosiy oqimlari bir qancha yaqin mamlakatlarda, xususan, Rossiya va Qozog'istonda sodir bo'ladi. "Rosstat" ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilning birinchi choragi yakuniga ko'ra, O'zbekiston fuqarolariga Rossiyada berilgan patentlar va ishlash uchun ruxsatnomalar soni 12 foizga kamaygan va 1,2 million donani tashkil qilgan. Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilning birinchi yarmida O'zbekiston fuqarolarining migratsiya ro'yxatiga olinganlari soni ham 2,9 milliondan 1,7 millionga yoki 43 foizga kamaygan. 2023-yilda boshqa davlatlardan pul o'tkazmalari hajmi 14 foizga oshdi. Dastlabki prognozlariga ko'ra, 2024-yilda xorijdan O'zbekistonga pul o'tkazmalari hajmi taxminan 12–12,5 milliard AQSH dollarini tashkil qiladi.¹⁴

Bugungi kunda respublikada ishsizlikning paydo bo'lish sabablariga ko'ra quyidagi asosiy turlari ko'p uchramoqda:

- tarkibiy — iqtisodiyotning yangi tarmoqlari paydo bo'lishi yoki eskisiga barham berilishi va mulkchilik shakllarining o'zgarishi bilan yuzaga keladi;

¹⁴ https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/download/35840/22913/37141?utm_source



- yashirin — bu asosan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish tarmoqlari uchun xos bo‘lib, haqiqiy ishchi kuchini kamroq miqdorda talab qiladi va ishlab chiqarishning chuqur inqirozi sharoitida korxonalarda ish bilan ortiqcha bandlikning saqlanib qolganligidan dalolat beradi;

- mavsumiy — ma‘lum mavsumda ish bilan bandlikni ta‘minlovchi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularni qayta ishlash hamda tayyorlash muddati bilan asoslangan;

- texnologik o‘zgaruvchan — korxonada texnologik o‘zgarishlar va modernizatsiya natijasida yuzaga keladi, masalan, fan-texnika yutuqlari natijasida qo‘l mehnati o‘rnini mashina egallashi.

Ishsizlik tarkibi uning sabablariga ko‘ra ishchi kuchining to‘rt asosiy toifasini o‘z ichiga oladi: ishdan bo‘shatilishi natijasida o‘z ish joyini yo‘qotganlar, ixtiyoriy ravishda ishdan bo‘shaganlar, ma‘lum muddat uzilish yoki tanaffusdan so‘ng mehnat bozoriga kelganlar hamda mehnat bozoriga birinchi bor kirib kelganlar.¹⁵

Xulosa

Ishsizlik darajasi mamlakat iqtisodiyotining qay darajada taraqqiy etganligining hamda iqtisodiyotda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarning muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ishsizlik darajasi deganda ishsizlar sonining iqtisodiy faol aholi tarkibidagi salmog‘i tushuniladi. Respublikada ishsizlik darajasini bandlik xizmatlarida ro‘yxatdan o‘tgan ishsizlar sonining iqtisodiy faol aholi umumiy soniga nisbatan olib hisoblash mumkin.

Ishsizlik darajasiga bir qancha omillar ta‘sir ko‘rsatadi: mehnat haqining pastligi, mehnat sharoitlari yaxshi emasligi, ish haqining o‘z vaqtida berilmasligi, ish joylarining qisqartirilishi va boshqalar.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari barqarorlashayotgan davrda ishsizlikning bo‘lishi tabiiy holatdir. Chunki ishchi kuchiga bo‘lgan talabning taklifga mos kelishi oqilona bandlikni shakllantirib, jamiyat uchun tabiiy bo‘lgan ishsizlik darajasini tarkib toptiradi.

Ish bilan band bo‘lmagan shaxslarni yangi kasblarga o‘rgatish, malakasini oshirish, moddiy yordam berish va ish joylarini tavsiya etish mehnat birjasi tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy tadbirlarning eng muhimi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Maxmudov N., Hakimov N. *Makroiqtisodiy tahlil*. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2019. – 181 bet.
2. Edward Shapiro. *Macroeconomic Analysis*. Fifth edition. – Oxford, 2015.
3. Maxmudov N.M., Asqarova M.T., Umarov I.Yu. *Makroiqtisodiy tahlil va*

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023. – 76 bet.



- proгноzlash*. Darslik. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2014. – 338 bet.
4. Xodiev B.Yu., Shodiev T.Sh., Berkinov B.B. *Ekonometrika*. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2018. – 178 bet.
 5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023. – 76 bet
 6. https://inacademy.uz/index.php/ejar/article/download/35840/22913/37141?utm_source
 7. **Lex.uz**